

YANGI O'ZBEKISTON KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOTLARI VA ULARNING HUQUQIY TIZIMGA TA'SIRI

Tilavova Farangiz Shokir qizi

Navoiy davlat universiteti magistranti

Elektron pochta: tilavovaf826@gmail.com

Telefon: 95 780-18-97

Annotatsiya. *Ushbu maqola Yangi O'zbekiston konstitutsiyaviy islohotlarining huquqiy tizimga ta'sirini ilmiy tahlil qiladi. Tadqiqot normativ- huquqiy va institutsional yondashuvlarga tayandi. Maqolada Konstitutsiyaning demokratik tamoyillar, jamiyat barqarorligi va ijtimoiy adolatni ta'minlashdagi o'rni, shuningdek, zamonaviy islohotlar asosida uning dolzarbligi yoritilgan. Mazkur maqolada Yangi O'zbekiston islohotlarining asosiy yo'nalishlari, mazmun-mohiyati va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati yoritiladi.*

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, jamiyat, fuqaro, huquq, burch, davlat, barqarorlik, erkinlik, konstitutsiyaviy islohotlar, sud hokimiyati, qonun ustuvorligi.

Abstract. *This article provides a scientific analysis of the impact of the constitutional reforms of New Uzbekistan on the legal system. The study is based on normative-legal and institutional approaches. The article highlights the role of the Constitution in ensuring democratic principles, social stability and social justice, as well as its relevance in the context of modern reforms. This article highlights the main directions, content and essence of the reforms of New Uzbekistan and their significance in the development of society.*

Keywords: constitution, society, citizen, right, duty, state, stability, freedom, constitutional reforms, judiciary, rule of law.

Darhaqiqat, har bir musatqil davlatning asosiy huquqiy poydevori uning konstitutsiyasidir. Konstitutsiya nafaqat davlat boshqaruvi va jamiyat tartibini belgilaydi, balki har bir fuqaroning erkin, tinch va farovon hayot kechirishini ta'minlovchi asosiy hujjat hisoblanadi.

Biz bugungi kunda Yangi O'zbekiston shiori asosida O'zbekistonimizni barcha jabhalarida yuksalmoqdamiz. Hech shubhasiz, Yangi O'zbekiston davlatimizga yangi tahrirdagi konstitutsiya zarur edi va biz bunga 2023-yil 30-aprelda umumxalq referendumini orqali erishdik. Yangi tahrirdagi konstitutsiyamiz qonunlari soni 128 tadan 155 taga, normalar soni 275 tadan 434 taga oshdi. Umuman olganda konstitutsiyamiz 65 foizga yangilanligi davlatimizning nufuzini yanada kuchaytirish va eng asosiysi xalqning yashash sharoitini yanada yaxshilashga harakat qiladi. Konstitutsiya har bir demokratik davlatning

oliy yuridik kuchga ega bo'lgan asosiy huquqiy hujjati hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to'g'ridan-to'g'ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi. [1,9].

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada eng ko'p takrorlangan tushuncha bu – inson qadri. Inson qadri – Konstitutsiyaning markazida. Davlatning asosiy vazifasi inson huquqlari, erkinliklariva manfaatlarini ta'minlash ekani aniq va ravshan belgilab qo'yiladi. Bu borada davlat rahbarimiz quyidagi fikrni ilgari surgan: “Yangi Konstitutsiya, avvalo, inson qadrini ta'minlashga fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli kafolatlashga xizmat qilishi kerak.” Bu g'oya Yangi O'zbekiston konstitutsiyaviy islohotlarining asosiy tamoyiliga aylangan.

Yangi O'zbekiston konsepsiyasining mazmuni, “Yangi O'zbekiston” – u shunchaki siyosiy shior emas, balki chuqur mazmunga ega bo'lgan rivojlanish modeli hisoblanadi.

Endilikda:

Inson huquqlari oliy qadriyat sifatida tan olinadi;

Davlat organlari xalqqa xizmat qilishi shart;

Fuqaroning sha'ni va qadr- qimmatini daxlsizdir.

Bu normal jamiyatda adolat, tenglik va ishonch muhitini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Ijtimoiy davlat sari qadam Yangi tahrirdagi Konstitutsiya O'zbekistonni ijtimoiy davlat sifatida mustahkamladi. Bu shuni anglatadiki endi davlat nafaqat boshqaruvchi, balki aholining ijtimoiy himoyachisi sifatida ham faoliyat yuritishi kerak.

Konstitutsiyada:

Ta'lim olish huquqi (50-modda)

Tibbiy xizmatdan foydalanish (48-modda)

Mehnat qilish va adolatli ish haqqi (42-modda)

Ijtimoiy yordam va kafolatlar kabi masalalar aniq va keng yoritildi. Bu esa aholining ijtimoiy himoyaga bo'lgan ishonchini yanada kuchaytirdi.

Siyosiy-huquqiy sohadagi islohotlar Yangi O'zbekiston islohotlarining muhim yo'nalishlaridan biri–siyosiy va huquqiy tizimni demokratlashtirishdir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev sud-huquq tizimi haqida so'z yuritarkan, adolat va qonun ustuvorligini ahamiyatini alohida ta'kidlab: “Adolat va qonun ustuvorligi ta'minlanmagan jamiyatda taraqqiyot bo'lishi mumkin emas” deya qayd etganlar. Ushbu fikr sud hokimiyatining mustaqilligi va fuqarolarning sud orqali himoyalani sh huquqini kuchaytirish zaruratini asoslab beradi. Bu borada quyidagi ishlar amalga oshirildi:

Qonun ustuvorligi va sud-huquq islohotlari:

Sud hokimiyatining mustaqilligini ta'minlash, fuqarolarning huquqlarini ishonchli himoya qilish islohotlarning asosiy maqsadiga aylandi. Sud tizimi soddalashtirildi,

fuqarolarning sudlarga murojaat qilish imkoniyatlari kengaytirildi. Advokatura instituti mustahkamlandi, tergov va sud jarayonlari inson huquqlarini ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish:

Davlat xizmatlarini raqamlashtirish, byurokratik to'siqlarni kamaytirish elektron hukumat tizimini joriy etish orqali aholiga qulayliklar yaratildi. Davlat organlari faoliyatida ochiqlik kuchaydi, jamoatchilik nazorati mexanizmlari kengaydi.

Iqtisodiy islohotlar va bozor munosabatlari:

Iqtisodiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar Yangi O'zbekiston taraqqiyotining poydevorini tashkil etadi.

Iqtisodiyotni liberallashtirish:

Valyuta bozorining erkinlashtirilishi, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, soliq tizimining soddalashtirilishi iqtisodiy o'sishga xizmat qildi, xususiy sektorning ulushi oshib, kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik rivojlandi. Hozirda ko'pchilik aholi yerdan unumli foydalanmoqda, davlatimiz ko'magi bilan aholi - mahallalar yordamida yerdan yanada unumli foydalanish maqsadida kredit asosida tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'ymoqda. Bu esa o'z navbatida aholi turmush sharoitini yanada yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Investitsiya muhiti va sanoat rivoji:

Chet el investitsiyalarini yanada jalb qilish uchun qulay sharoitlar yaratildi. Erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va sanoat klasterlari tashkil etildi. Natijada yangi ish o'rinlari yaratilib, aholining daromadlari oshdi.

Ijtimoiy sohadagi islohotlar:

Yangi O'zbekiston siyosatida ijtimoiy himoya va aholi farovonligi masalalari markaziy o'rinni egallaydi.

Ta'lim tizimini isloh qilish:

Maktabgacha ta'limdan boshlab oliy ta'limgacha bo'lgan tizim tubdan yangilandi. Yangi maktablar, oliy ta'lim muassasalari tashkil etildi, ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan dasturlar amalga oshirildi. oliy ta'limga qamrov sezilarli darajada kengaydi.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya:

Tibbiyot muassasalari moddiy –texnik bazasi mustahkamlandi, zamonaviy klinikalar ochildi. Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari uchun yordam tizimi joriy etildi. Ma'naviy - ma'rifiy va yoshlar siyosati:

Yangi O'zbekiston islohotlarida ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylandi. Madaniyat, san'at va adabiyot rivojiga keng imkoniyatlar yaratildi.

Yoshlar siyosati:

Yoshlarning ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi tadbirkorlik bilan shug'ullanishi uchun ko'plab dasturlar ishlab chiqildi. Yoshlar-Yangi O'zbekiston bunyodkorlari sifatida e'tirof etildi.

Davlat hokimiyat tizimining konstitutsiyaviy asoslari –konstitutsiyaviy islohotlar davlat hokimiyati tarmoqlari o'rtasida muvozanatni ta'minlashga qaratildi. Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatining vakolatlari aniq belgilandi. Prezident Shavkat Mirziyoyev bu borada: „Hokimiyatlar bo'linishi va ularning o'zaro muvozanati demokratik davlatning muhim belgisi hisoblanadi,“ – deya ta'kidlaganlar.

Ayniqsa:

parlamentning nazorat funksiyasi kuchaytirildi;

ijro hokimiyati faoliyatida mas'uliyat va hisobdorlik oshirildi;

sud hokimiyatining mustaqilligi kafolatlandi.

Bu kabi o'zgarishlar huquqiy tizimda hokimiyatlar bo'linishi tamoyilining amalda ishlashini ta'minladi.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O'zbekiston konstitutsiyaviy islohotlari mamlakat huquqiy tizimini modernizatsiya qilishda o'ta muhim bosqich bo'ldi desak aslo va yana aslo mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Konstitutsiya –Yangi O'zbekistonimizning poydevori, Yangi O'zbekiston konstitutsiyaviy islohotlari – bu bir martalik o'zgarish emas, balki uzoq muddatli taraqqiyot strategiyasidir. U inson manfaatlarini davlat siyosatining markaziga qo'ydi, jamiyatda adolat va qonun ustuvorligini mustahkamladi. Yangi Konstitutsiyamiz bugunki kunda davlat boshqaruvini demokratlashtirish va huquqiy davlat asoslarini va qonun ustuvorligini kuchaytirishga va yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda Konstitutsiya faqat huquqshunoslar uchun emas, balki har bir O'zbekiston fuqarosi uchun muhim hayotiy hujjatga aylanmoqda. Yangi Konstitutsiyamizni O'zbekiston fuqarolari - bizlar, barchamiz yangilanishiga o'z hissamizni qo'shdik, desam aslo mubolag'a bo'lmaydi. Zero, qonunni bilmaslik hech qachon javobgarlikdan ozod qilmagan va qilmaydi ham. Shuning uchun ham bizlar bosh qomusimizni o'rganishga va uni anglashga majburmiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi -Toshkent,2023 [9-bet 15-modda]
- 2.O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent O'zbekiston -2022.
- 3.Mirziyoyev Sh.M Inson qadri- davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi prezident nutqlari va ma'ruzalari to'plami. Toshkent,2021.

4. Sh.Mirziyoyev Konstitutsiya - xalq irodasining ifodasi, Xalq so'zi gazetasi, 2022.
5. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. lex.uz
6. Saidov A.X. Konstitutsiyaviy huquq. Toshkent: TDYU nashriyoti, 2020.